ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

SOBIROV SHERZOD SHODULLOYEVICH

SURUNKALI BUYRAK YETISHMOVCHILIGINI EKSPERIMENTAL MODELLASHTIRISH FONIDA TALOQDAGI MORFOMETRIK VA MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARI

14.00.02 – Morfologiya

Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 616.61-008.64-092.9:616.411-091.8

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Sobirov Sherzod Shodulloyevich
Surunkali buyrak yetishmovchiligini eksperimental modellashtirish fonida taloqdagi morfometrik va morfologik o‘zgarishlari **3**

Собиров Шерзод Шодуллоевич
Морфометрические и морфологические изменения селезенки на фоне экспериментального моделирования хронической почечной недостаточности **23**

Sobirov Sherzod Shodulloevich
Morphometric and morphological changes in the spleen during experimental modeling of chronic kidney failure **45**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works **49**

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

SOBIROV SHERZOD SHODULLOYEVICH

SURUNKALI BUYRAK YETISHMOVCHILIGINI EKSPERIMENTAL MODELLASHTIRISH FONIDA TALOQDAGI MORFOMETRIK VA MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARI

14.00.02 – Morfologiya

Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tib4019 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bsmi.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xasanova Dilnoza Ahrorovna** tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Zokirova Nargiza Baxodirovna** tibbiyot fanlari doktori (DSc)
	Oripov Firdavs Sur’atovich tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti (Qozog‘iston Respublikasi)**

Dissertatsiya himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 17-noyabr soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50. e-mail: info@bsmi.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ __ raqami bilan ro‘yxatga olingan), (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.J. Teshayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

N.Q. Dustova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

M.R. Mirzoyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, “…butun dunyo bo‘ylab 674 million kishi surunkali buyrak kasalligidan aziyat chekmoqda, bu dunyo aholisining 9 foizini tashkil qiladi…”[1]. Surunkali buyrak yetishmovchiligi (SBYe) nafaqat ekskretor faoliyatning pasayishi, balki organizmda uremik toksinlarning to‘planishi, oksidlovchi stressning kuchayishi, surunkali yallig‘lanish, immun disbalans, suv-elektrolit va kislota-ishqor muvozanatining buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab tizimli patologik jarayondir. Ushbu o‘zgarishlar yurak-qon tomir tizimi, jigar, o‘pka, markaziy nerv tizimi, endokrin va immun tizim faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ko‘p a’zoli yetishmovchilik rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, immun tizim faoliyatining izdan chiqishi surunkali buyrak yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlarda infeksion asoratlarning ko‘payishi, vaksinatsiya samaradorligining pasayishi va kasallik prognozining yomonlashishida muhim o‘rin tutadi. Immun tizimining markaziy va periferik organlari orasida taloq alohida ahamiyat kasb etadi. Taloq antigenlarni tanib olish, immun javobni shakllantirish, T- va B-limfotsitlarning proliferatsiyasi va differensiyalanishi, makrofaglar faolligi, eskirgan eritrotsitlarni utilizatsiya qilish hamda organizm immun homeostazini saqlashda muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli surunkali buyrak yetishmovchiligi fonida taloq to‘qimasida rivojlanadigan morfologik va morfometrik o‘zgarishlarni o‘rganish immun tizimidagi buzilishlarning patogenetik asoslarini aniqlash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda surunkali buyrak yetishmovchiligining yurak, jigar, bosh miya, qon tomirlari va endokrin organlarga ta’siri yuzasidan ko‘plab eksperimental hamda klinik tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ushbu patologiya sharoitida taloqning oq pulpa va qizil pulpasida, limfoid follikulalarida, periarterial limfoid mufta, germinativ markazlar, marginal zona hamda stromal komponentlarida yuzaga keladigan morfometrik va morfologik o‘zgarishlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, ushbu strukturaviy o‘zgarishlarning surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanish bosqichlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, immun javobning susayishi va morfologik qayta qurilishlar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar cheklangan. Eksperimental modellashtirish surunkali buyrak yetishmovchiligi patogenezini standart sharoitlarda o‘rganish, patologik jarayonlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatish hamda immun tizimi organlarida kechayotgan strukturaviy o‘zgarishlarni obyektiv baholash imkonini beradi. Ayniqsa, morfometrik tadqiqotlar oq pulpa va qizil pulpa maydonining nisbati, limfoid follikulalar diametri, germinativ markazlar diametri, PALM qalinligi, stromal komponentlarning ulushi kabi ko‘rsatkichlarni miqdoriy baholash orqali patologik jarayonning og‘irlik darajasi va dinamikasini aniq tavsiflash imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish, surunkali buyrak kasalliklarini kamaytirish va taloq kasalliklari kelib chiqishining oldini olish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi PQ-38-son «...sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish,

[1] Buyrak salomatligini targ‘ib qilish hamda buyrak kasalliklarining oldini olish va davolashni kuchaytirish orqali yuqumli bo‘lmagan kasalliklar yukini kamaytirish / Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti – Ijroiya qo‘mitasi, 156-sessiya.– B. 2.https://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/EB156/B156_CONF6-ru.pdf

tibbiyot kadrlarining salohiyatini oshirish, nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash...»[2] ni amalga oshirish kabi birlamchi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan surunkali buyrak yetishmovchiligi ta’sirida taloq to‘qimasining shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan immun tizimi a’zolari kasalliklarini davolash usullarini baholash yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni, 2021-yil 25-maydagi «Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5124-son qarori, 2021-yil 28-iyuldagi «Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam to‘g‘risida»gi Qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida taloq immun tizimining yirik periferik a’zosi sifatida qon orqali tushgan antigenlarni filtrlash, oq pulpada T- va B-limfotsitlar ishtirokida immun javobni shakllantirish hamda qizil pulpada eskirgan eritrotsitlarni utilizatsiya qilish vazifalarini bajarishi ko‘rsatilgan (Mebius R.E., Kraal G., 2005; Lewis S.M. et al., 2019). Surunkali buyrak kasalligida uremik toksinlarning to‘planishi, oksidlovchi stress va surunkali yallig‘lanish tug‘ma va adaptiv immunitet hujayralari faoliyatining buzilishiga, T- va B-limfotsitlar sonining kamayishiga olib kelishi (Kato S. et al., 2008; Betjes M.G.H., 2013), bu esa bemorlarda infeksion asoratlar xavfining ortishi va vaksinatsiya samaradorligining pasayishi bilan namoyon bo‘lishi aniqlangan (Syed-Ahmed M., Narayanan M., 2019). Shuningdek, 5/6 nefrektomiya modelida o‘tkazilgan tajribada kurkuminning yallig‘lanish omillarini kamaytirib, buyrak yetishmovchiligi kechishini yengillashtirishi ko‘rsatilgan (Ghosh S.S. et al., 2009).

MDH olimlarining ta’kidlashicha, immun tizimi organizmdagi eng harakatchan tizimlardan biri bo‘lib, turli kasallik chaqiruvchi omillar ta’siriga tez javob beradi va organizmning moslashuv jarayonlarida ishtirok etadi (Чава С.В., Буклис Ю.В., 2011). So‘nggi yillarda immun tizimining morfofunksional xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish sezilarli darajada oshgan; taloq immun a’zosi sifatida alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki odam va hayvonlarning immun tizimi har qanday stimulga tez javob beradigan eng sezgir tizimlardan biri hisoblanadi (Алексеева Н.Т. va hammualiflar, 2021). Сметанина М.Б. (2024) tomonidan furosemid keltirib chiqargan gipomagniyemiyada tajriba hayvonlari taloq oq pulpasining strukturaviy va hujayraviy tarkibi o‘rganilgan.

Mahalliy olimlardan Hamdamova M., Teshayev Sh., Hikmatova M. (2024) buyrak yetishmovchiligi bo‘lgan kalamushlarda timus va taloqdagi morfologik o‘zgarishlarni hamda ularni anor urug‘i yog‘i bilan korreksiyalash imkoniyatlarini, Maxmudova G.F. (2024) surunkali kasalliklardan keyin taloqda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni o‘rgangan.

Shunga qaramay, bugungi kunda oshib borayotgan surunkali buyrak yetishmovchiligi fonida taloq to‘qimasida rivojlanadigan morfologik va morfometrik o‘zgarishlar, ularning yoshga bog‘liq xususiyatlari hamda o‘simlik vositalari bilan korreksiyalash imkoniyatlari

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi «Sog‘liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-38-sonli qarori https://lex.uz/docs/6775377

yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotda 3, 6 va 9 oylik kalamushlarda surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida taloqning morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy (CD3, CD20) ko‘rsatkichlari kompleks baholanib, zarjava ildizi kukunining morfoprotektiv ta’siri asoslangan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat tibbiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “COVID-19dan keyingi davrda Buxoro vohasi aholisi salomatligiga ta’sir etuvchi patologik omillarni erta aniqlash, tashxislash hamda yangi davolash-profilaktika usullarini ishlab chiqish (2022–2026-yy.)” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi surunkali buyrak yetishmovchiligida taloq morfologik va morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

3, 6 va 9 oylik oq zotsiz erkak intakt kalamushlar talog‘ining morfologik va morfometrik parametrlarini o‘rganish;

surunkali buyrak yetishmovchiligini tajribada modellashtirish fonida 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz erkak kalamushlar taloq to‘qimasining morfologik va morfometrik parametrlarini o‘rganish;

surunkali buyrak yetishmovchiligini tajribada modellashtirish natijasida taloqda yuzaga kelgan morfologik va morfometrik o‘zgarishlarni zarjava ildizi kukuni bilan korreksiyadan keyingi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz erkak kalamushlar taloq to‘qimasi ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro taqqoslash;

nazorat, tajriba va korreksiya guruhlaridagi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz erkak kalamushlar talog‘ining immunogistokimyoviy xususiyatlarini CD3 va CD20 markerlarining ekspressiyalanish darajasiga ko‘ra qiyosiy baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tajriba boshida 2, 5 va 8 oylik (tajriba yakunida 3, 6 va 9 oylik) bo‘lgan 170 ta oq zotsiz erkak kalamush o‘rganilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida laboratoriya hayvonlari talog‘ining turli qismlaridan olingan mikropreparatlar xizmat qilgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy va statistik tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli sharoitida taloqning oq pulpa va qizil pulpasida rivojlanadigan morfologik o‘zgarishlarning qonuniyatlari aniqlanib, limfoid follikulalar arxitektonikasining buzilishi, periarterial limfoid mufta qalinligining kamayishi, germinativ markazlar diametrining kichrayishi hamda qizil pulpaning nisbiy kengayishi ilmiy jihatdan asoslangan;

ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida taloqning morfometrik ko‘rsatkichlari kompleks baholanib, oq va qizil pulpa maydonlari nisbati, limfoid follikulalar diametri, germinativ markazlar diametri hamda stromal komponentlar ulushidagi miqdoriy o‘zgarishlar aniqlangan;

ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli natijasida taloqda yuzaga kelgan morfologik va morfometrik o‘zgarishlarning zarjava ildizi kukuni bilan korreksiyadan keyingi dinamikasi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz kalamushlarda kompleks baholanib, oq va qizil pulpa nisbatlari, limfoid follikulalar diametri, periarterial limfoid

mufta qalinligi, germinativ markazlar diametri hamda stromal komponentlar ko‘rsatkichlarining tajriba guruhi bilan qiyosiy tahlili asosida zarjava ildizi kukunining taloq to‘qimasidagi strukturaviy o‘zgarishlarni korreksiya qilishdagi morfoprotektiv samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan;

ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli sharoitida taloq to‘qimasida CD3 va CD20 immunogistokimyoviy markerlari ekspressiyasi kompleks baholanib, T-limfotsitlar (CD3) va B-limfotsitlar (CD20) ning oq pulpa, periarterial limfoid mufta hamda limfoid follikulalardagi taqsimlanishi va ekspressiya darajasidagi o‘zgarishlar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli sharoitida taloqda rivojlanadigan morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy o‘zgarishlar kompleks baholanib, taloq to‘qimasida patologik jarayonning rivojlanish qonuniyatlari hamda immun tizimining strukturaviy qayta qurilishiga xos morfologik mezonlar aniqlangan.

Taloqning oq va qizil pulpasidagi morfometrik ko‘rsatkichlar, limfoid follikulalar, periarterial limfoid mufta, germinativ markazlar hamda stromal komponentlardagi miqdoriy o‘zgarishlar aniqlanib, ushbu ko‘rsatkichlardan surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida immun tizimi organlarining strukturaviy holatini baholashda foydalanish mumkinligi asoslangan.

Zarjava ildizi kukuni bilan o‘tkazilgan korreksiya natijasida taloq to‘qimasidagi morfologik va morfometrik o‘zgarishlarning kamayishi hamda CD3 va CD20 immunogistokimyoviy markerlari ekspressiyasining me’yorlashishga moyilligi aniqlanib, zarjavaning immunomorfoprotektiv xususiyatlari eksperimental jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib borilgan ilmiy ishning innovatsion yondashuvlari, eksperimental metodlar, morfometrik tahlillar hamda statistik ishlov berish asosida ta’minlangan. Ushbu kompleks yondashuv morfometrik ko‘rsatkichlardagi eng xarakterli va qonuniyatli o‘zgarishlarni aniqlashga imkon yaratadi. Bundan tashqari, tadqiqot yakunlarining ishonchliligi ularning mavjud ilmiy manbalar – mahalliy va xorijiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi, shuningdek, natija va xulosalarning tegishli vakolatli ilmiy idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan ham asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli sharoitida taloqda rivojlanadigan morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy o‘zgarishlarning qonuniyatlari aniqlanganligi, oq va qizil pulpa, limfoid follikulalar, periarterial limfoid mufta, germinativ markazlar hamda stromal komponentlarning strukturaviy qayta qurilishi ilmiy jihatdan asoslanganligi, CD3 va CD20 immunogistokimyoviy markerlari ekspressiyasining o‘zgarishlari aniqlanib, surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida taloqning immunomorfologik qayta qurilishi hamda hujayraviy va gumoral immunitetdagi buzilishlarning morfologik asoslari to‘ldirilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aniqlangan morfometrik va immunogistokimyoviy ko‘rsatkichlar surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida taloqdagi strukturaviy o‘zgarishlarni baholashning qo‘shimcha morfologik mezonlari sifatida foydalanilishi va zarjava ildizi kukuni bilan o‘tkazilgan korreksiya natijalari uning taloq to‘qimasiga nisbatan immunomorfoprotektiv xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatib,

eksperimental tadqiqotlarda va yangi fitokorreksion vositalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot davomida olingan morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy natijalar hamda surunkali buyrak yetishmovchiligi fonida taloqda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni baholashga xizmat qiluvchi morfologik mezonlar asosida:

birinchi ilmiy yangilik: ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli sharoitida taloqning oq pulpa va qizil pulpasida rivojlanadigan morfologik o‘zgarishlarning qonuniyatlari aniqlanib, limfoid follikulalar arxitektonikasining buzilishi, periarterial limfoid mufta qalinligining kamayishi, germinativ markazlar diametrining kichrayishi hamda qizil pulpaning nisbiy kengayishi ilmiy jihatdan asoslanganligi Surxondaryo viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 14-apreldagi 13-T sonli, Buxoro shahar tibbiyot birlashmasining 2025-yil 15-fevraldagi 244-2-42-TB 2025-sonli hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filialining 2025-yil 5-martdagi 72-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida taloqda kuzatiladigan morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish hamda zarjava ildizi kukunini qo‘llash kasallik asoratlarini erta baholash va ularning oldini olishga ilmiy asos yaratadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Natijalardan surunkali buyrak yetishmovchiligida taloqdagi morfologik o‘zgarishlarni qiyosiy o‘rganish va zarjava ildizi kukuni bilan korreksiyalashda foydalanish mumkin. *Xulosa:* Surunkali buyrak yetishmovchiligida laboratoriya hayvonlari talog‘idagi morfologik o‘zgarishlarning xususiyatlarini aniqlash va baholash usulining qo‘llanilishi tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablag‘ning 203 000 so‘mgacha tejalishiga erishiladi.

ikkinchi ilmiy yangilik: ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida taloqning morfometrik ko‘rsatkichlari kompleks baholanib, oq va qizil pulpa maydonlari nisbati, limfoid follikulalar diametri, germinativ markazlar diametri hamda stromal komponentlar ulushidagi miqdoriy o‘zgarishlar aniqlanganligi Surxondaryo viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 14-apreldagi 13-T sonli, Buxoro shahar tibbiyot birlashmasining 2025-yil 15-fevraldagi 244-2-42-TB 2025-sonli hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filialining 2025-yil 5-martdagi 72-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Taloqning morfometrik ko‘rsatkichlari surunkali buyrak yetishmovchiligi sharoitida immun tizimi a’zolarining strukturaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi va immun tizimi buzilishlarini erta aniqlashga oid tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Morfometrik ko‘rsatkichlardan foydalanish tajribaviy tadqiqotlarda baholash aniqligini oshiradi va takroriy tekshiruvlarga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi. *Xulosa:* Tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablag‘ning 218 000 so‘mgacha tejalishiga erishiladi.

uchinchi ilmiy yangilik: ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli natijasida taloqda yuzaga kelgan morfologik va morfometrik o‘zgarishlarning zarjava ildizi kukuni bilan korreksiyadan keyingi dinamikasi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz kalamushlarda kompleks baholanib, oq va qizil pulpa nisbatlari, limfoid follikulalar diametri, periarterial limfoid mufta qalinligi, germinativ markazlar diametri hamda stromal komponentlar

koʻrsatkichlarining tajriba guruhi bilan qiyosiy tahlili asosida zarjava ildizi kukunining taloq toʻqimasidagi strukturaviy oʻzgarishlarni korreksiya qilishdagi morfoprotektiv samaradorligi ilmiy jihatdan asoslanganligi Surxondaryo viloyat koʻp tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 14-apreldagi 13-T sonli, Buxoro shahar tibbiyot birlashmasining 2025-yil 15-fevraldagi 244-2-42-TB 2025-sonli hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filialining 2025-yil 5-martdagi 72-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Ushbu ilmiy yangilik SBYe fonida taloq va immun tizimining morfologik asoslarini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, ushbu holatlarning oldini olish va korreksiyalash strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi. Mazkur natijalar buyrak kasalliklarida immun tizimi holatiga e'tibor qaratish zaruriyatini koʻrsatadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Taloqdagi morfologik oʻzgarishlar va ularning zarjava ildizi kukuni bilan korreksiyasi haqidagi ma'lumotlar SBYe bilan bogʻliq immun buzilishlarida maqsadli korreksiya usullarini ishlab chiqishga yordam beradi va tadqiqot xarajatlarini kamaytiradi. *Xulosa:* Tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablagʻning 205 000 soʻmgacha tejalishiga erishiladi.

toʻrtinchi ilmiy yangilik: ilk bor surunkali buyrak yetishmovchiligining tajriba modeli sharoitida taloq toʻqimasida CD3 va CD20 immunogistokimyoviy markerlari ekspressiyasi kompleks baholanib, T-limfotsitlar (CD3) va B-limfotsitlar (CD20) ning oq pulpa, periarterial limfoid mufta hamda limfoid follikulalardagi taqsimlanishi va ekspressiya darajasidagi oʻzgarishlar aniqlanganligi Surxondaryo viloyat koʻp tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 14-apreldagi 13-T sonli, Buxoro shahar tibbiyot birlashmasining 2025-yil 15-fevraldagi 244-2-42-TB 2025-sonli hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filialining 2025-yil 5-martdagi 72-sonli buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Zarjava ildizi kukuni bilan korreksiya taloqdagi immunomorfologik oʻzgarishlarni kamaytirib, immun tizimi faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi; tabiiy vositalardan foydalanish dori vositalarining nojoʻya ta'sirlarini kamaytirishi mumkin. *Iqtisodiy samaradorligi:* Zarjava ildizi bilan korreksiya qilish usuli SBYe bilan bogʻliq taloqdagi oʻzgarishlarni korreksiyalashda an'anaviy dori vositalariga nisbatan arzonroq va qulayroq muqobil boʻlishi mumkin. *Xulosa:* Tajribaviy tadqiqotlar va morfologik tekshirishlarni optimallashtirish hisobiga har bir tajribaviy tadqiqot seriyasi uchun sarflangan mablagʻning 210 000 soʻmgacha tejalishiga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashidan 2026-yil 29-apreldagi 07/46-sonli yagona xulosa olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan boʻlib, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrtta bob, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Surunkali buyrak yetishmovchiligini tajriba modellashtirish fonida taloqdagi morfometrik va morfologik o‘zgarishlar bo‘yicha adabiyotlar tahlili (adabiyotlar sharhi)» deb nomlangan birinchi bobida surunkali buyrak yetishmovchiligining zamonaviy talqini, taloq to‘qimasining me’yoriy morfologik tuzilishi va unga ta’sir etuvchi omillar, turli patologik holatlarda taloqda kuzatiladigan morfologik xususiyatlar hamda surunkali buyrak yetishmovchiligida taloq to‘qimasidagi morfologik o‘zgarishlar haqidagi zamonaviy ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Material va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari va usullari batafsil bayon etilgan. Tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida material-texnik baza tayyorlangan, gistologik bo‘yoqlar olingan. Shuningdek, O‘zR SSV huzuridagi Etik qo‘mitadan laboratoriya hayvonlarida tajribalar o‘tkazish uchun yozma ruxsatnoma olingan.

Tadqiqot 170 ta 2, 5 va 8 oylik oq zotsiz kalamushlarda vivarium sharoitida o‘tkazilgan. Tajribaning boshida barcha jinsiy yetuk kalamushlar bir hafta davomida karantinda bo‘lib, somatik yoki yuqumli kasalliklar istisno qilingandan so‘ng, kuniga 3 mahal ovqatlanish bilan odatdagi vivarium rejimiga o‘tkazilgan. Hayvonlar 3 guruhga ajratilgan (n=170):

1-nazorat guruhi – 2, 5 va 8 oylik sog‘lom kalamushlar (n=30); 2-tajriba guruhi – mushak orasiga 50% li glitserin eritmasi (0,5 ml/100 g) yuborilgan kalamushlar (n=70); 3-korreksiya guruhi – glitserin xuddi shu dozada yuborilib, so‘ng 1 oy davomida zarjava ildizi kukuni (20 mg/100 g) qabul qilgan kalamushlar (n=70).

Surunkali buyrak yetishmovchiligi modeli G. Greven usuli bo‘yicha (Борисова И.В., Штрыголь С.Ю., 2004) glitserin yordamida yaratilgan. Buning uchun kalamushlar 24 soat davomida och saqlanib, so‘ng mushak orasiga 50% li glitserin eritmasi tana vazniga 0,5 ml/100 g hisobida, yog‘ emboliyasi va yiringlashning oldini olish uchun dozani ikkiga bo‘lib (o‘ng va chap orqa oyoqlarga) yuborilgan.

SBYe modeli chaqirilganligi biokimyoviy ko‘rsatkichlar (hayvonlarning qon zardobida mochevina va kreatinin miqdori o‘lchanganda nazorat guruhida mochevina miqdori 5,2±0,6 mmol/l, kreatinin esa 62,4±5,1 mkmol/l ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba guruhda esa mazkur ko‘rsatkichlar keskin oshgan: mochevina 14,8±1,2 mmol/l, kreatinin esa 185,7±12,3 mkmol/l gacha ko‘tarilgan) va klinik kuzatuvlar (hayvonlarda ozuqa va suv iste’molining kamayishi, kam siydik ajralishi, holsizlik, harakatchanlikning pasayishi va tana vazni kamayishi) hamda buyrak to‘qimasidagi morfologik o‘zgarishlar (glomerulalarda sklerotik va distrofik o‘zgarishlar, interstitsial to‘qimada fibroz elementlarning paydo bo‘lishi) orqali isbotlangan.

Korreksiya maqsadida kalamushlarga zarjava ildizi kukuni 20 mg/100 g hisobida kuniga 1 mahal ertalab ovqat bilan 1 oy davomida berilgan. Zarjava ildizi kukuni antioksidant, immunomodulyator xususiyatlari va organizmdagi yallig‘lanishni kamaytirish qobiliyati bilan mashhur.

Tajriba davomida buyrak yetishmovchiligi rivojlanishining umumqabul qilingan muddatlari inobatga olinib, kuzatuvlar 3 sutka, 1 va 2 hafta, shuningdek, 1 oy o‘tgach amalga oshirilgan. Dekapitatsiya usuli efir narkozida, ertalab och qoringa bajarilgan.

Qorin bo‘shlig‘i ochilgandan so‘ng taloq ajratib olinib, 10% li neytral formalin eritmasida fiksatsiyalangan. Tegishli ishlov berilgandan so‘ng material parafinga quyilgan va 3–5 mkm qalinlikdagi kesmalar tayyorlangan.

Taloq to‘qimasining umumiy morfologik tuzilishi Gematoksilin-eozin, Veygert gematoksilini, van-Gizon va immunogistokimyoviy bo‘yash usullari orqali o‘rganilgan.

Gematoksilin-eozin bo‘yash usuli ikki bosqichli bo‘lib, gematoksilin asosiy bo‘yoq sifatida hujayra yadrolarini ko‘k-siyoh rangga bo‘yagan, eozin esa kislotali bo‘yoq bo‘lib, sitoplazmani qizg‘ish rangga bo‘yagan.

Van-Gizon bo‘yicha bo‘yash usuli esa taloq to‘qimasidagi biriktiruvchi elementlar va kollagen tolalar tuzilishini o‘rganish uchun qo‘llanilgan. Bu usulda kislota fuksini va pikrin kislotasi aralashmasi ishlatilib, kislota fuksini kollagen tolalarni yorqin qizil rangga, pikrin kislotasi esa boshqa to‘qimalarni sariq rangga bo‘yagan.

Bizning tadqiqotimizda taloq to‘qimasidagi quyidagi morfometrik ko‘rsatkichlar o‘rganilgan: limfoid tuguncha diametri (mkm), germinativ (ko‘payish) markaz diametri (mkm), PALM (periarterial limfoid mufta) qalinligi (mkm), marginal soha qalinligi (mkm), oq pulpa maydoni (%), qizil pulpa maydoni (%), parenxima va stroma nisbati. Taloqning morfometrik o‘lchamlari vintli okulyar-mikrometr, obyekt-mikrometr va okulyar nuqtali to‘r yordamida, kesmaning standart yuzasi 0,074 mm² bo‘lgan holda olingan (Автандилов Г.Г., 1990); morfometrik tekshiruvlar QuPath 0.4.0 dasturi yordamida ham amalga oshirilgan.

Taloq to‘qimasida T-limfotsitlar (CD3) va B-limfotsitlar (CD20) ekspressiyasini baholash immunogistokimyoviy (IGX) usulda amalga oshirilgan. Immunogistokimyoviy reaksiya natijalari yorug‘lik mikroskopida kamida 10 ta tasodifiy tanlangan ko‘rish maydonida (×400 kattalashtirishda) baholangan.

Ekspressiya darajasi immunopozitiv bo‘yalgan hujayralarning umumiy hujayralar soniga nisbatan foiz (%) hisobida aniqlangan. Har bir namunada kamida 1000 ta limfoid hujayra sanalib, quyidagi formula bo‘yicha hisoblangan:

Ekspressiya (%) = (immunopozitiv hujayralar soni / umumiy sanalgan hujayralar soni) × 100.

Immunopozitiv hujayralar ulushi yarim miqdoriy (semiquantitative) usulda baholangan:

- 0 ball – immunobo‘yalish kuzatilmaydi;
- 1 ball (zaif ekspressiya) – immunopozitiv hujayralar 10% gacha;
- 2 ball (o‘rtacha ekspressiya) – immunopozitiv hujayralar 11–50%;
- 3 ball (yuqori ekspressiya) – immunopozitiv hujayralar 50% dan yuqori.

CD3 ekspressiyasi asosan periarterial limfoid mufta (PALM)da joylashgan T-limfotsitlarda, CD20 ekspressiyasi esa limfoid follikullar va germinativ markazlardagi B-limfotsitlarda baholangan. Ekspressiya natijalari morfometrik ko‘rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, nazorat, tajriba va korreksiya guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan solishtirilgan.

Gisto-, sito- va immunomorfologik ma’lumotlarning statistik tahlili Microsoft Office Excel dasturi yordamida amalga oshirilgan. STATGRAPHICS Plus 5.1 dasturi yordamida o‘rtacha arifmetik qiymat (M), o‘rtacha kvadrat og‘ish (σ) va reprezentativlik xatosi (m) aniqlangan. Guruhlar o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligi Styudent-t mezoni yordamida

baholangan ($p<0,05$).

Dissertatsiyaning **“3-6-9 oylik davrgacha bo‘lgan oq zotsiz kalamushlar va eksperiment sharoitda surunkali buyrak yetishmovchiligi fonida taloqdagi morfologik va morfometrik parametrlarni o‘rganish”** deb nomlangan uchinchi bobi tadqiqotda olingan natijalarga bag‘ishlangan bo‘lib, 3 ta kichik bobdan tashkil topgan. 3-6-9 oylik davrgacha bo‘lgan oq zotsiz sog‘lom kalamushlar talog‘idagi morfometrik parametrlarini o‘rganish deb nomlanuvchi 1-kichik bobida nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlar talog‘ining gistologiyasi, morfometriyasi batafsil keltirilgan. Nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning autopsiyadan keyin olingan taloq to‘qimasi morfologik va morfometrik tekshirilganda, normal tuzilishga ega ekanligi aniqlangan.

6 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘i makroskopik ko‘rsatkichlari (shakli, rangi, tuzilishi) bo‘yicha o‘lchami va og‘irligining kattaligi bilan 3 oylik guruhdan ustun bo‘lgan. 6 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘i mikroskopik ko‘rsatkichlarini 3 oylik guruh bilan taqqoslanganda oq pulpa hajmi kattaligi, qizil pulpaning hajmi esa oq pulpaga nisbatan qariyb 3 barobar katta bo‘lishi aniqlangan.


6 oylik oq zotsiz kalamushlar tana vazni 3 oylik bilan taqqoslanganda, 1,93 marta, a’zo mutlaq vazni esa 1,52 marta oshgan, oq pulpa nisbiy maydoni parallel ravishda 8,1% ga oshganligi aniqlangan. limfoid tugunchalar (LT) va ko‘payish markazlari (KM) diametri 3 oylik oq zotsiz kalamushlar bilan taqqoslanganda, mos holda 10,7% va 9,42% ga oshib, LT lar aylana va oval shakldan cho‘zinchoq shaklga o‘tganligi, mantiya, marginal va periarterial sohalarning kengligi, mos holda 2,74%, 4,64% va 5,15% ga yosh ulg‘aygan sari oshib borgan. Ko‘payish markaziga ega bo‘lmagan LT lardagi limfotsitlarning umumiy soni, 3 oylik yoshdagi oq kalamushlar bilan taqqoslanganda, 21,0% ga oshib, Periarterial limfoid muftalardagi limfotsitlar umumiy soni 23,7% ga oshganligi aniqlangan. 9 oylik davrdagi sog‘lom oq kalamushlarda oq pulpa nisbiy maydoni 18,1% dan 22,4% gacha bo‘lib, o‘rtacha - 20,14±0,39% ni tashkil qilgan. 6 oylik davrdagi oq kalamushlar bilan taqqoslanganda, oq pulpa nisbiy maydoni 2,0% ga kamaygan. Biriktiruvchi to‘qima elementlarining nisbiy maydoni 5,7% - 6,8% bo‘lib, o‘rtacha - 6,33±0,1% ga teng (taloq kesmasining umumiy maydoniga nisbatan).


9 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘i shakli va og‘irligi jihatdan 3 va 6 oyliklarnikidan yuqori bo‘lib, kapsulasi va trabekulalarining qalinligi bilan farqlanishi aniqlangan. Morfometrik ko‘rsatkichlarga ko‘ra oq pulpaning nisbiy maydoni kamaygan, qizil pulpa esa kengaygan bo‘lib, oq pulpadan qariyb 3,6 barobar katta bo‘lgan (oq pulpa va biriktiruvchi to‘qima nisbiy maydonidan hisoblanganda).

9 oylik oq zotsiz kalamushlar vazni 6 oylik oq zotsiz kalamushlar bilan taqqoslanganda, 1,16 marta, a’zo mutlaq vazni esa 1,06 martaga oshib borganligi aniqlangan. LT va KM larining diametri, 6 oylik oq zotsiz kalamushlarga nisbatan, mos holda 1,47% va 5,85% ga kamayganligi, bu jarayon qizil pulpaning hajmining ortganligi bilan izohlanadi.

Oq pulpa nisbiy maydoni 2,0% ga kamaygan, LT lardagi limfotsitlarning umumiy soni 9,6% ga kamayishi, bu taloq to‘qimasining yetilgan davri 6 oylik yoshga to‘g‘ri kelishini bildiradi (1-rasm), chunki yosh ulg‘aygan sari LT larda limfotsitlar sonining fiziologik kamayishi yuzaga keladi. PALM dagi limfotsitlarning umumiy soni, 3,2% ga oshishi kuzatilib, bu regeneratsiya natijasida yosh limfoblastlarning ko‘payishi hisobidan yuzaga kelganligi aniqlangan.

Nazorat guruhidagi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘ining makroskopik ko‘rsatkichlari, xususan, vazni, uzunligi, kengligi va qalinligi yosh ulg‘aygan sari ortib borishi va bu jarayon taloq stromasi hisobiga amalga oshishi aniqlangan.





1-rasm. Nazorat, tajriba va korreksiya guruhlaridagi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘ida oq pulpa va biriktiruvchi to‘qima elementlarining nisbiy maydoni.

9 oylik oq zotsiz kalamushlarda limfoid tugunchalar va ko‘payish markazlarining diametri 6 oyliklarga nisbatan mos holda 1,47% va 5,85% ga kamaygan. Ko‘rsatkichlarning aksariyati 6 oylik guruhda eng yuqori bo‘lib, 9 oylik guruhda pasayishi taloq involyutsiyasi aynan 9 oylik davrda boshlanganligini ko‘rsatadi.

“3-6-9 oylik davrgacha bo‘lgan oq zotsiz erkak kalamushlar talog‘ining eksperiment sharoitida SBYe bilan kasallangandan keyingi parametrlarini o‘zaro taqqoslash” nomli 2- bo‘limida surunkali buyrak yetishmovchiligida taloqdagi o‘zgarishlar morfometrik tahlil qilinganda, SBYe bilan kasallangan hayvonlarda 3 oylik oq zotsiz kalamushlarning taloq to‘qimasidagi morfometrik ko‘rsatkichlarni nazorat va tajriba guruhlari (surunkali buyrak yetishmovchiligi chaqirilgan) o‘rtasida o‘tkazilgan tahlillar sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatgan. Tajriba guruhida taloq vazni, uzunligi, kengligi va qalinligi mos ravishda kamayganligi aniqlangan.

Eksperimental 3 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘idagi periarterial limfoid muftasining morfometrik ko‘rsatkichi o‘rtacha 99,35±0,98 mkm gacha kamayishi (nazorat guruhida 132,14±1,56 mkm), shu sohada joylashgan yetuk T-limfotsitlarning

kamayishi bilan belgilanib, o‘rnini yosh limfoblast hujayralar egallagani aniqlangan. SBYe fonida 3 oylik kalamushlarda qon atsidozining kuchayishi qizil pulpa sinusoidlari bo‘shlig‘ining torayishiga, eritrotsitlar gemolizining kuchayishiga, taloq tizimchalarining kichrayishiga va yetuk limfotsitlar o‘rnini oz sonli blast hujayralar egallashiga olib kelib, taloqning bronza rangga kirishi bilan kechgan. Bu natijalar surunkali buyrak yetishmovchiligi taloqning morfometrik va funksional holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, immun tizimi faolligini keskin pasaytirishini tasdiqlaydi.

Eksperimental surunkali buyrak yetishmovchiligiga chalingan 6 oylik laboratoriya oq zotsiz kalamushlarning vazni 170 dan 250 g gacha bo‘lib, o‘rtacha 217,8±7,36 g ni tashkil qilgan. A’zoning mutlaq vazni 0,54- 0,86 g bo‘lib, o‘rtacha – 0,73±0,03 g ga teng. Vazn indeksi 0,277% dan 0,392% gacha bo‘lib, o‘rtacha 0,335±0,01%ni tashkil qilgan. Taloq uzunligi 27,4 mm dan 34,8 mm gacha bo‘lib, o‘rtacha - 30,3±0,77 mm ni tashkil qilgan. O‘sish sur’ati - 25,2% ga teng. Taloq kengligi 5,0-7,4 mm bo‘lib, o‘rtacha – 6,16±0,22 mm ni tashkil qilgan. O‘sish sur’ati - 9,8% ga teng. Taloq qalinligi 2,0 mm dan 3,8 mm gacha bo‘lib, o‘rtacha - 3,02±0,16 mm ni tashkil qilgan. O‘sish sur’ati - 12,0% ga teng.

Surunkali buyrak yetishmovchiligi fonida eksperimental 9 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘idagi periarterial limfoid muftasining diametri nazorat guruhiga nisbatan 5,5% ga, ko‘payish markazining diametri esa 5,5% ga kamaygani aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhidagi 9 oylik oq zotsiz kalamushlar taloq to‘qimasiga oid morfologik ko‘rsatkichlar (M±m)


Guruh / Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Kalamushlar vazni (g)	256,33±5,52	253,5±6,48
Taloqning vazni (g)	0,84±0,028	0,77±0,03
Taloqning uzunligi (mm)	34,21±0,74	30,8±1,21*
Taloqning kengligi (mm)	6,52±0,26	6,20±0,28
Taloqning qalinligi (mm)	3,21±0,17	3,11±0,15
PALM diametri (mkm)	137,72±0,93	130,12±1,06**
Limfoid tuguncha diametri (mkm)	414,84±6,31	388,10±7,36*
Ko‘payish markazi diametri (mkm)	127,62±2,52	120,56±2,60
Mantiya sohasi (mkm)	44,76±1,06	42,94±0,76
Marginal soha (mkm)	76,34±1,13	70,92±0,95**
PALM kengligi (mkm)	84,97±1,29	78,54±0,91**
LT dagi limfotsitlar soni	52,2±0,74	46,7±0,86**
PALM dagi limfotsitlar soni	60,3±0,83	52,8±0,97**

*Izoh: * – nazorat guruhiga nisbatan farqlar ishonchli ($p<0,05$); ** – $p<0,01$.*

Surunkali buyrak yetishmovchiligida 9 oylik oq zotsiz kalamushlar talog‘i 6 oylik tajriba oq zotsiz kalamushlari bilan taqqoslanganda, oq zotsiz kalamushlar vazni 1,16 marta, a’zoning mutlaq vazni esa 1,05 marta oshgan. KM diametri 13,64% ga oshgan. Limfoid tugunchalar aylana, oval va cho‘zinchoq shaklga ega. Mantiya, marginal va periarterial sohalarning kengligi, 6 oylik oq kalamushlar bilan taqqoslanganda, mos holda 1,63%, 1,2% va 0,96% ga kamaygan, KM ga ega bo‘lmagan limfoid tugunchalardagi limfotsitlarning umumiy soni 5,3% ga kamaygan, periarterial limfoid muftalardagi limfotsitlar umumiy soni

2,6% ga kamayganligi aniqlangan. SBYe fonida 9 oylik kalamushlar talog‘ining qizil pulpa tizimchalarida limfotsitlar soni keskin kamaygan, sinusoidlar o‘tkazuvchanligi ortib, sklerotik o‘zgarishlar rivojlangan, bu eritrotsitlar gemolizining kuchayishiga hamda siderofaglar, makrofaglar va leykotsitlar sonining ortishiga olib kelgan. Taloq trabekulalari notekis qalinlashgan, qon tomirlari to‘laqonli bo‘lib, ularning devorida fibrinoid bo‘kish, gialinoz va skleroz belgilari aniqlangan. Taloq to‘qimasidagi bu chuqur o‘zgarishlar immun funksiyaning keskin susayganidan darak beradi.

6 oylik oq zotsiz kalamushlar eksperimental surunkali buyrak yetishmovchiligi chaqirilganda, talog‘ida gipoksik jarayonlar kuchayib, toksinlar ko‘payishi hisobidan: taloq kapsulasi va trabekulalari notartib qalinlashganini, qon-tomirlar to‘laqonli, qon-tomir devorining o‘tkazuvchanligi ortib fibrinoidli bo‘kish, gialinozga va sklerozga xos o‘zgarishlar van-Gizon usulida bo‘yalganda aniqlangan. Perivaskulyar sohada kuchli ifodalangan shish va sklerotik o‘zgarishlarning rivojlanishi ortganligi ko‘zga tashlanadi. PALM sohasi kichraygan, arteriyasi devori qalinlashgan, bo‘shlig‘i toraygan, atrof sohasida yetuk T limfotsitlar kamayib, o‘rnini yosh blast hujayralar (T-limfoblast) ko‘paygan. Qon tomir bo‘shlig‘ida to‘laqonlik aniqlangan. Oq pulpa sohasi hajmli kichraygan; limfoid follikulaning markaziy qismi, ya’ni ko‘payish markazi kichraygan, yosh limfoblast hujayralar ko‘paygan, ya’ni ularning proliferatsiyasi, T- va B- zonasi limfotsitlarining blasttransformatsiyasi aniqlangan. Mantiya va marginal sohalari ingichkalashgan, kichraygan. Yetuk T- va B-limfotsitlar soni kamaygan, shunga mos ravishda makrofaglar ham kamaygan. Bu taloqda immun tizimi susayganidan darak beradi (2-rasm).




2-rasm. Eksperiment sharoitida SBYe bilan kasallangan 6 oylik oq zotsiz kalamush talog‘i mikroskopik ko‘rinishi. van-Gizon usulida bo‘yalgan. Ok. 10 × ob. 10. 1-qizil pulpa sohasi: taloq sinusoidlari bo‘shlig‘i toraygan, eritrotsitlar gemolizi, parenxima atrofiyasi. 2-taloq tizimchalari kichraygan, blast hujayralar soni ko‘paygan. 3-taloq trabekulasi qalinlashgan. 4-qon-tomir devori qalinlashgan va to‘laqonlik.

“3-6-9 oylik oq zotsiz kalamushlarda SBYe natijasida zarjava ildizi kukuni bilan korreksiyadan keyingi davrlarda taloqning morfologik va morfometrik o‘zgarishlar”- deb nomlanuvchi uchinchi bo‘limida tajribaviy chaqirilgan surunkali

